

OT OBRAZINING GENEZISI

*To‘xtayev Soxibjon Tojibek o‘g‘li
 Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
 2-kurs magistranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada otning turkiy xalqlar etnomadaniyatida tutgan o‘rni va badiiy obraz bo‘lib shakllanishi haqida so‘z boradi.Maqolada, asosan, xalq ijodi namunalaridan olingan misollar yordamida va tarkolog olimlarning ilmiy manbalariga tayangan holda ot obrazi atroflicha yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Ot, badiiy obraz, genezis, Turkiy xalqlar, ramziylik.

Annotation. This article discusses the role of the horse in the ethnosculture of Turkish people and its formation as an artistic image. The article thoroughly explores the image of the horse using examples from folklore and based on the scientific sources of Turkologists..

Otning o‘zbeklar tarixida, umuman, butun turkiy xalqlar tarixida tutgan o‘rni beqiyosdir. “Turklar tarixda otni birinchi bo‘lib xonakilashtirgan millatdir”.¹ Ko‘chmanchi turk qavmlari asosan chorvachilik bilan shug‘ullangan ko‘chmanchi bir millat bo‘lganligi, ot turklarning ham minadigan, hamda go‘shtidan va sutidan foydalanadigan asosiy manbayi ekanligi tarixiy manbalardan ma’lumdir. “Tabir joiz bo‘lsa, Turk – ot ustida o‘sar, ot ustida yashar va o‘lardi”.²

Bir qavmning boshqa qavm ustida olib borgan janglarida otli jangchilarining qo‘sghan hissasi katta bo‘lgan. Ba’zi rivoyatlarda keltirilishicha jangovor otlar yugurganida tuyoqlari ostidan o‘t chaqnaqanligi aytildi. Ba’zi Islom tafsirchilarining fikriga ko‘ra, Qur’oni Karimda kelgan oyatda (“O‘t chaqnatib chopuvchi otlar bilan qasam”)(Adiyat surasi 2-oyat)³turk otlariga ishora qilinganligi aytib o‘tilgan.

“Homerning “Iliada” dostonida tog‘ qo‘riqchilari bo‘lib kelgan Kentavrлar, ya’ni ot odamlar haqiqatda bosqinchi otli Turk askarlaridan boshqasi emasdir. Turklarning

¹ YOZUVCHI: TURKOLOG Fatih Mehmet Yiğit. “Turklar va otlar(Turklarda ot madaniyati)”.2018.
<https://independent.academia.edu/turkologfatihmehmetyigit>

² YOZUVCHI: TURKOLOG Fatih Mehmet Yiğit. “Turklar va otlar(Turklarda ot madaniyati)”.2018.
<https://independent.academia.edu/turkologfatihmehmetyigit>

³ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. “Tafsiri hilol”. -Toshkent: „Sharq“NMAK.2009.

ot ustida o‘q otish va ot minishlikdagi mahoratlari Yevropa mifologiyasida turklarni yarim ot, yarim odam qilib tasvirlashgan”.⁴

Mahmud Qoshg‘ariy “Devonu lug‘otit-turk” asarida “Ot turkning qanotidir” deb ta’kidlagan. Bundan ko‘rinib turibdiki, otning turkiy qavmlar orasida tutgan o‘rni kattadir. Bundan tashqari “Ot er kishining yo‘ldoshidir, Ot,yo‘ldosh,qurol” kabi maqollarning ko‘pligi fikrimiz dalilidr.

Turkiy qavmlarning otga bo‘lgan munosabatini ularning urf-odatlariga qarab ham bilsak bo‘ladi. Qadimda Turkarda vafot etgan kishilar oti bilan birgalikda ko‘milganlar. VII-X asr Bizans manbaalarida keltirilishicha:“Turklar xuddi ot ustida tug‘ilgandir, yerda yurishni bilmaslar”. Ya’ni, turklarning hayoti, turmush tarzi, umumiy yashash faoliyatlarida otning tutgan o‘rni katta bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin. Shu sababli O‘rta Osiyoda yashagan Turklar, ba’zi tadqiqotchilarning “ot madaniyati” deya nomlaganliklari turmush tarzi bo‘lib davom etib kelmoqdadir. Bugungi kunimizda ham to‘ylarimizda, katta-katta bayram sayllarimizda ot ishitirokidagi o‘yinlar tashkil qilinmoqda. Ko‘pkari, ot poygasi bunga misol bo‘la oladi.

Tarixda odamlarning ijtimoiy-siyosiy hayotini, yashash sharoitini o‘rganadigan bo‘lsak, otning xonakilashtirilishi va ulov vositasida foydalanilishi, bugungi kunimizda zamonaviy avtomashinlardan foydalanishiga tenglashtirsak bo‘ladi. Hozirgi kunda avtomashinsi bor odamlarni o‘tmishda oti bor odamlarga solishtirilsa, ikkalasi bir xil mavqega ega ekanligini ko‘rolamiz.

Oting badiiy obraz bo‘lib shakllanishiga nazar tashlasak, eng avvalo, xalq og‘zaki ijodi janrlari(xalq dostonlari, maqol, ertak v.k)da ko‘rishimiz mumkin. Bir qancha turk dostonlarida ot qahramonlashtirilgan va g‘ayrioddiy kuchlar otga berilgan. Masalan, Bo‘z ot va Tulpor deya ta’riflangan otlar ham ko‘kka ucholgan, ham gapirolgan hamda bir qancha belgilarga ega bo‘lgan mo‘jizaviy bir ko‘rinishga ega bo‘lgan. Alpomishning Boychibori, Go‘ro‘g‘lining G‘irko‘ki bunga yorqin misol bo‘la

⁴ YOZUVCHI: TURKOLOG Fatih Mehmet Yiğit. “Turklar va otlar(Turklarda ot madaniyati)”.2018.
<https://independent.academia.edu/turkologfatihmehmetyigit>

oladi. “Manbalarda Pegasus nomi bilan ma’lum bo‘lgan uchar mifologik qanotli ot turk dostonlarida uchraydigan tulpordir”.⁵ Qolaversa, ot obrazini xalq ijodi namunalarining boshqa janrlari:maqol, ertak, ibora, qo‘sishlarda uchratamiz. Ammo ushbu janrlarning har birida ot obrazi turli ma’no va mazmun kasb etadi. Biz yuqorida keltirib o’tgan maqollardan ko‘rishimiz mumkinki, ot obrazi bilan bog‘liq fikr va xulosalar xalqning ko‘p yillik bilim va tajribalari asosida vujudga kelganini guvohi bo‘lamiz. Xalq ertaklari namunalarida ham ot obrazini uchratishimiz mumkin. O‘zbek xalq ertaklaridan biri “Uch og‘a-ini botirlar” ertagida ot obraziga e’tibor qaratamiz. Ota voyaga yetgan uch o‘g‘lini uzoq safarga jo‘natayotib shunday deydi: “To‘g‘ri bo‘ling — bexavotir bo‘lasiz. Maqtanchoq bo‘lmang — xijolat tortmaysiz. Dangasalik qilmang — baxtsiz bo‘lmaysiz. Bundan boshqasini o‘zingiz biling. Qora toyni, saman toyni, ko‘k toyni asbob-anjomlari bilan tayyorlab qo‘ydim. Xurjunlaringizni bir haftalik ovqat bilan to‘lg‘izdim. Baxtingiz yo‘lda, topib olmoq uchun dunyonи ko‘rgani yo‘lga chiqing, dunyonи tanimay dunyo kishisi bo‘lmaysiz. Baxt qushini ushlar moq uchun baxt oviga chiqing. Xayr o‘g‘illarim”. Ertakdan olingen ushbu parchada ota o‘z o‘g‘illariga uchta ot hadya qiladi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek “Ot er kishining yo‘ldoshidir”. Qadimda safarga chiqqan odamga eng yaxshi yo‘ldosh bu — ot hisoblangan. Bu esa ertakda ishtirok etgan etgan ot obrazining muhim jihatlaridandir. E’tibor berib qarasak, otlarning rangi alohida aytib o‘tilgan. Bu ranglarda esa ramziylik aks etganini ko‘rishimiz mumkin. “Qora rang — ulug‘vorlik ramzi. Saman otning eng yaxshi fazilatlaridan biri bu uning o‘z egasiga sadoqatidadir. Ko‘k ot xalq dostonlarida G‘irko‘k nomi bilan keladi. Bunday otlar juda chopqir va aqlii otlar sirasiga kiradi”.⁶ Ertakda qora toy katta o‘g‘ilga hadya qilinadi. Chunki u bosh farzand, ya’ni farzandlar ichida ulug‘i bo‘lgani uchun. Saman toy o‘rtanchasiga, chunki uka bo‘lib akaga, aka bo‘lib esa ukaga sadoqatli bo‘lishligi uchun. Ko‘k toy esa kenja farzandga hadya qilinadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, er kishiga hamisha zarur bo‘lgan ulug‘lik, dovyuraklik, sadoqat, epchillik va abjirlik ot obrazi vositasida chiroyli yoritilib, ot

⁵ YOZUVCHI: TURKOLOG Fatih Mehmet Yiğit. “Turklar va otlar(Turklarda ot madaniyati)”.2018.
<https://independent.academia.edu/turkologfatihmehmetyigit>

⁶ Mahkamova Shahloxon Oxunjon qizi. Ot obrazida ramziylik.2022

obrazi orqali asar qahramonlariga yo‘ldosh qilib berilgan. Bu esa ot obrazining xususiyatlarini ochib beradi.

Demak, ot obrazining genezisini hamda obraz bo‘lib to‘laqonli shakllanganligini xalq ijodi namunalarida, ya’ni maqol, ertak, qo‘sish, dostonlar orqali bilib olishimiz mumkin bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. “Tafsiri hilol”. -Toshkent: „Sharq“NMAK.2009.
2. .Abdumurod Tilavov. Ot obrazi: tarix, tahlil va talqin. – Toshkent: “Sano-standart”, 2021. – 160 b.
3. YOZUVCHI: TURKOLOG Fatih Mehmet Yiğit. “Turklar va otlar(Turklarda ot madaniyati)”.2018.
4. Mahkamova Shahloxon Oxunjon qizi. Ot obrazida ramziylik.2022
5. <https://independent.academia.edu/turkologfatihmehmetyigit>
6. <https://ertak.uz/tale/397>